

“YO‘LQURILISH” AJ
Yagona aksiyadorining
2023-yil 3-iyuldagi
91/09-3-qr-sonli qaroriga
3-ILOVA

“YO‘LQURILISH” AJ
KUZATUV KENGASHI TO‘G‘RISIDAGI
NIZOMI
(yangi tahrir)

1. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni (bundan keyin matnda - Qonun)ga, Korporativ boshqaruv kodeksi (31.12.2015y. 9-son) talablariga, "Yo'lqurilish" AJ (keyingi o'rinlarda – Jamiyat) ustaviga va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan, kuzatuv kengashining maqomi va uning ishini, reglamentini, uning a'zolarini saylash, shuningdek ularning huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

2. Jamiyatning kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, qonun hujjatlari va Jamiyat ustavi bilan yagona aksiyador vakolati doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

2. KUZATUV KENGASHINING VAKOLATLARI

3. Jamiyat kuzatuv kengashi vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida jamiyat ijroiya organining hisobotini har chorakda ravishda eshitib borgan holda jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

- Jamiyatning yillik biznes – rejasini ma'qullash. Bunda Jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes – rejasi joriy yilning 1-dekabridan kechiktirmay ma'qullanishi lozim;

- Jamiyatning ichki audit xizmatini tashkil etish, uning xodimlarini tayinlash va "Ichki audit hizmati to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

- Jamiyat kuzatuv kengashidan iborat Strategiya va investitsiyalar, Audit, Tayinlovlar va haq to'lash, Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitalarini tashkil etish hamda uning nizomlarini tasdiqlash;

- Jamiyatning veb-sayti to'g'risidagi nizomni va boshqa nizomlarni tasdiqlash;

- Jamiyat Taftish komissiyasiga to'lanadigan haq va kompensatsiya miqdori yuzasidan tavsiyalar berish;

- Jamiyatning ijroiya organi faoliyatiga daxldor har qanday hujjatdan erkin foydalanish va ijroiya organidan Jamiyat Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun ularni olish. Olingan hujjatlardan Jamiyat Kuzatuv kengashi va uning a'zolari faqat xizmat maqsadlarida foydalanishlari mumkin;

- Amalga oshirilgan xaridlar natijalarini, mavjud investitsiya loyihalari ijrosini va elektron tizimlarni takomillashtirish bo'yicha takliflarni muhokama qilish;

- dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

- "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 8 va 9 – boblarida nazarda tutilgan holatlarda Jamiyat tomonidan bitimlar tuzish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

- Jamiyatning zaxira fondi va boshqa fondlaridan foydalanish;

- Jamiyatning filiallarini tashkil etish hamda vakolatxonalarini ochish va tugatish;

- Jamiyatning sho'ba va tobe korxonalarini tashkil etish;
- Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;
- mol – mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;
- jamiyat mulkini begonalashtirish, uni sotish shakli va mexanizmini, jamiyat va uning tarkibidagi korxonalar ustav kapitaliga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritish bo'yicha kelishuvlarni (bitim, shartnoma, memorandum va boshqalar) ko'rib chiqish;
- jamiyat asosiy faoliyatiga xos bo'lmagan yangi ko'chmas mulk obyektlarini sotib olishi yoki qurishi hamda xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalidagi ulushni sotib olishi, shuningdek, asosiy faoliyatidan tashqari faoliyat bilan shug'ullanishi bo'yicha qaror qabul qilish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati qarorlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.
- qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda Jamiyatning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish xaqida qaror qabul qilish;
- "muvofiglik tizimi" (Kompleans) xizmatini tashkil etish hamda faoliyat tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;
- Jamiyatning Boshqaruv raisi va a'zolari lavozimiga tanlov e'lon qilish, tanlovning obyektiv mezonlari, ularning yakuni bo'yicha yangicha fikrlovchi, zamonaviy talablarga javob beruvchi yuqori malakaga ega bo'lgan, shuningdek, xorijiy menejrlarni tanlab olish jarayonlarini o'z ichiga olgan reglamentni tasdiqlash;
- Jamiyatning ijroiya organi, ichki nazorat organi, Jamiyatda tashkil etilgan kollegial organlar faoliyatini muvofiqlashtirish, zarur bo'lganda, Jamiyat rivojlanish rejasini ishlab chiqishni tashkil etish va unda belgilangan maqsadlarga erishish monitoringi uchun ekspertlarni jalb etish;
- Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqish, uni joriy etish bo'yicha yagona aksiyadorga tavsiya berish va muntazam baholanishi bo'yicha ishlarning qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiq tarzda amalga oshirilishini, shuningdek yillik moliyaviy hisobotlarni Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tarzda e'lon qilishga o'tish uchun malakali xizmat ko'rsatuvchi auditorlik yoki konsalting tashkilotlarini jalb etish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirishni ta'minlash.
- homiylik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) to'g'risida qarorlarni faqat yagona aksiyador tomonidan belgilangan tartib va shartlar asosida, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qabul qilish;
- Jamiyatda Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalarini joriy etish yuzasidan nazoratni amalga oshirish;
- Korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;
- Jamiyatda korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish uchun mustaqil tashkilotni tanlov asosida jalb etish;

- Kuzatuv kengashi barcha investorlarga, ularning daromad darajasi, jinsi, irqi, dini, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar bir xil munosabatni ta'minlash;

- ushbu Ustav va amaldagi qonunchilikka muvofiq Jamiyat Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiritilgan boshqa masalalarni ham hal etish.

4. Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Jamiyatning ijroiya organiga o'tkazilishi mumkin emas.

3. KUZATUV KENGASHI A'ZOLARINI SAYLASH, TAYINLASHVA VAKOLATINI MUDDATIDAN ILGARI TUGATISH

5. Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari qonunchilikda va Jamiyat ustavida nazarda tutilgan tartibda aksiyador qarori bilan uch yil muddatga saylanadi.

6. Jamiyat kuzatuv kengashining son tarkibi 5 **kishidan** iborat.

7. Kuzatuv kengashi tarkibiga bir nafar mustaqil a'zo kiritiladi. Bunda kuzatuv kengashining mustaqil a'ziligiga nomzodlar, jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan qoida tariqasida tanlov asosida, bunda yagona aksiyador tomonidan ham tanlov asosida yoki "headhunter" kompaniyalar orqali tanlab olingan nomzodlar mustaqil a'zolik uchun kuzatuv kengashi muhokamasiga kiritiladi.

8. Kuzatuv kengashining mustaqil a'zoligi uchun tanlov va nomzodlarni tanlab olish mazkur Nizom asosida amalga oshiriladi. Quyidagilar kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi bo'lishi mumkin emas:

- so'ngi uch yil ichida jamiyatda va (yoki) jamiyatning affillangan shaxslarida ishlagan shaxs;

- jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarning besh yoki undan ortiq foiziga egalik qiluvchi (to'g'ridan-to'g'ri va (yoki) affillangan shaxslar orqali) aksiyador;

- jamiyatning va (yoki) uning affillangan shaxsining yirik mijozi va (yoki) yirik yetkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo'lgan shaxs. Bunda qaysi shaxslar bilan bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming baravaridan ko'p bo'lgan summaga teng amaldagi shartnoma mavjud bo'lsa, o'sha shaxslar mijoz va yirik yetkazib beruvchi deb e'tirof etiladi;

- so'ngi uch yil ichida jamiyatga va (yoki) jamiyatning affillangan shaxslariga auditorlik xizmatlarini ko'rsatgan auditorlik tashkilotining xodimi;

- ketma-ket olti yil davomida jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga kirgan shaxs;

- jamiyat va (yoki) uning affillangan shaxslari bilan biror-bir kelishuvga ega bo'lgan shaxs, bundan kuzatuv kengashi a'zosining vazifalari va funksiyalari bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan kelishuvlar mustasno;

- jamiyatning boshqaruv va ichki nazorat organlarining va (yoki) uning affillangan shaxslarining a'zosi bo'lgan shaxsning yoki so'ngi uch yil ichida ularga a'zo bo'lgan shaxsning yaqin qarindoshi yoki quda tomonidan qarindoshi (ota-onasi, aka-ukalari, opa-singilari, o'g'illari, qizlari, eri (xotini), shuningdek erining (xotinining) ota-onasi, aka-ukalari, opa singillari va farzandlari) bo'lgan shaxs;

- davlat boshqaruvi organining yoki davlat korxonasining xodimi bo'lgan shaxs;
- jamiyatning ustavida yoki yagona aksiyador qarorlari bilan tasdiqlangan hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan shaxs.

9. Jamiyatning korporativ munosabatlar, aktivlarni boshqarish va axborot hizmati boshqarmasi jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan mustaqil a'zolarining reestrini yuritadi hamda uni jamiyat rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.

10. Jamiyat kuzatuv kengashi mustaqil a'zosining ushbu Nizomning 8-bandida belgilangan talablarga muvofiqligi o'zgargan taqdirda, u jamiyatni va kuzatuv kengashini bu haqda ikki ish kuni ichida xabardor qilishi shart. Bu holda mazkur Nizomda belgilangan tartibda boshqa mustaqil a'zo taklif etiladi.

11. Jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

12. Jamiyatning ijroiya organi a'zolari, uning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar jamiyatning kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas.

13. Jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosi bo'lishi mumkin emas.

14. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari vazifasini bajarishdan quyidagi holatlarda ozod etiladi:

- yozma ariza bergan taqdirda;
- vakolatlaridan mahrum etilgan taqdirda;
- o'zining majburiyatlariga rioya qilmaganda;
- belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan taqdirda;
- unga nisbatan ozodlikdan mahrum etish to'g'risidagi sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan taqdirda;
- vafot etgan taqdirda;
- sog'lig'i holatiga yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra vazifasini bajarishga qodir bo'lmay qolgan taqdirda.

15. Kuzatuv kengashi a'zolarining vakolatini muddatidan ilgari tugatish yagona aksiyador qarori bilan amalga oshiriladi.

16. Jamiyat Kuzatuv kengashi va mustaqil a'zolarining saylovlari kumulyativ ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

17. Kumulyativ tarzda ovoz berilganda har bir aksiyadorga tegishli bo'lgan ovozlar soni, Jamiyat Kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan mustaqil a'zolar va boshqa a'zolar soniga ko'paytiriladi hamda aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqlidir.

18. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzod Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

19. Yagona aksiyador qarorida kuzatuv kengashining qaysi a'zosi mustaqil a'zo

ekanligi ko'rsatilishi kerak.

20. Jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan qo'shimcha talablar Jamiyat ustavida yoki aksiyador tomonidan tasdiqlangan qarorda belgilab qo'yilishi mumkin.

4. KUZATUV KENGASHINING A'ZOLARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

21. Kuzatuv kengashi a'zolari Korporativ boshqaruv, menejment, iqtisodiy va huquqiy hamda marketing masalalari bo'yicha bilim va ko'nikmalardan biriga ega bo'lishlari lozim.

22. Davlat ulushi tomonidan Jamiyat kuzatuv kengashiga nomzodlar (qonunchilikda o'rnatilgan holatlardan tashqari) Korporativ boshqaruv ilmiy – ta'lim Markazi tomonidan berilgan Korporativ boshqaruvchi malaka attestati yoki sertifikatga ega bo'lishi lozim.

Kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo'yicha saylangan a'zolar faoliyatiga korxonada transformatsiya jarayonlarining samarali tashkil etish, korxonaning tashqi qarzlarni optimallashtirish, zamonaviy xarid tizimini joriy etish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga muqobil mablag'larni jalb etish kabi mezonlar asosida baho beriladi.

5. KUZATUV KENGASHINING RAISI

23. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan, ushbu kengash tarkibidan kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan saylanadi.

24. Jamiyatning kuzatuv kengashi o'z raisini kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan qayta saylashga haqli.

25. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi.

26. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi bo'lmagan taqdirda uning vazifasini kuzatuv kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi.

6. KUZATUV KENGASHINING MAJLISLARI

27. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisi kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, Jamiyat kuzatuv kengashining a'zosi, taftish komissiyasi, ijroiya organining, shuningdek ichki audit xizmati boshlig'i talabiga ko'ra chaqiriladi.

28. Jamiyat kuzatuv kengashi majlislari uning raisi tomonidan har chorakda kamida bir marta chaqiriladi. Yig'ilishda majburiy tartibda quyidagilar ko'rib chiqiladi:

- *Jamiyat ijroiya organining Jamiyatning yillik biznes-reja ko'rsatkichlarining bajarilishi va rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi, Jamiyat tarkibiga kiruvchi korxonalar faoliyati yuzasidan ularning tasdiqlangan biznes-rejasiga muvofiq, bajarilgan ishlar va erishilgan ko'rsatkichlar to'g'risidagi hisobotlari;*

- *Jamiyatda yirik bitim yoki affillangan shaxslar bilan bitmi tuzilishi, shu*

jumladan, ushbu bitimlarni tuzishda qonun hujjatlari va Jamiyatning ichki hujjatlariga rioya etilishi bo'yicha taftish komissiyasining xulosalari;

- Ichki audit xizmati hisoboti.

29. Jamiyatda texnik vositalar, kuzatuv kengashi a'zolarini identifikatsiya qilish vositalari va boshqa apparaturalar mavjud bo'lgan taqdirda, kuzatuv kengashining majlislari videokonferens-aloqa tarzida o'tkazilishi mumkin.

30. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish uchun kvorum Jamiyat kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining yetmish besh foizidan kam bo'lmasligi kerak.

31. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida qarorlar majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, agar O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni va Jamiyat ustavida o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi.

32. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi kuzatuv kengash a'zolarining ovozi teng bo'lgan hollarda hal qiluvchi ovozga ega.

33. Jamiyatning ustav fondini (kapitalini) ko'paytirish to'g'risidagi va Jamiyat ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish haqida, shuningdek konunchilikda nazarda tutilgan hollarda yirik bitimlar tuzish xaqida qarorlarni qabul qilish Jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

34. Jamiyat kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga yoki uchinchi shaxsga berishiga yo'l qo'yilmaydi.

35. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Kuzatuv kengashining majlis bayonnomasi kotib tomonidan yuritiladi. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng o'n kundan kechiktirmay tuziladi.

36. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

- majlisda hozir bo'lgan shaxslar;

- majlisning kun tartibi;

- ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;

- qabul qilingan qarorlar.

37. Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolanadi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

38. Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni Jamiyatning ijroiya organiga ijro etish uchun topshiriladi.

39. Jamiyat ijroiya organi hisobotlarini har chorakda kamida bir marta, shu jumladan videokonferensaloqa orqali va elektron ovoz (e-VOTE) berish yo'li bilan

o'tkaziladigan majlislarda eshitish.

40. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlislarining bayonnomasi Kuzatuv kengashi kotibi tomonidan tuziladi.

41. Jamiyat Kuzatuv kengashining kotibi Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan saylanadi. Kuzatuv kengashi kotibi sifatida, qoida tariqasida, Jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasiga yuklatiladi.

42. Kuzatuv kengashining kotibi bo'lmagan taqdirda uning vazifasini Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi.

43. Kuzatuv kengashi faoliyatini ta'minlash uchun Kuzatuv kengashi kotibi barcha zarur choralarni ko'radi.

44. Kuzatuv kengashining kotibi:

- Kuzatuv kengashining ish rejasi loyihasini tayyorlashni tashkillashtiradi;
- Kuzatuv kengashi majlislarini chaqirish to'g'risidagi talabnomalarni qabul qiladi va xabarnomalarni yuboradi;
- Kuzatuv kengashi majlislariga hujjatlar va materiallarni tarqatadi;
- Kuzatuv kengashi majlislari bayonnomalarini yuritadi va tayyorlaydi;
- mazkur Nizomga, Jamiyatning ichki xujjatlariga va Kuzatuv kengashi raisining topshiriqlariga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

45. Mazkur nizomda nazarda tutilgan xujjatlar va materiallar Kuzatuv kengashi kotibi olgan sana Kuzatuv kengashiga taqdim etilgan sana deb hisoblanadi.

Kuzatuv kengashi kotibiga u o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 3 baravari miqdorida har oyda haq (mukofot) to'lanadi.

46. Kuzatuv kengashi majlisi bayonlari ular rasmiylashtirilgandan so'ng o'n kun muddatda Davlat aktivlarini boshqarish agentligining "Davlat mulki" axborot tizimida joylashtiriladi.

7. KUZATUV KENGASHI A'ZOLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

47. Kuzatuv kengashi a'zosi quyidagi huquqlarga ega:

- kuzatuv kengashi majlisida shaxsan qatnashish, yig'ilishda muhokama qilinayotgan masala yuzasidan reglament bilan ajratilgan vaqt doirasida so'zga chiqish;

- kuzatuv kengashi qaroriga ko'ra muayyan davr uchun Jamiyatning faoliyati, uni rivojlantirish rejaları to'g'risidagi ma'lumotlar olish;

- Jamiyat moliyaviy natijalariga ko'ra qonunchilikda va Jamiyatning ichki hujjatlarida o'rnatilgan tartibda o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun mukofot va (yoki) kuzatuv kengashining a'zosi vazifasini bajarish bilan bog'liq xarajatlarni olish.

- Qonunchilikda va Jamiyat ustavida ko'zda tutilgan boshqa huquqlar;

48. Kuzatuv kengashi qoshida kuzatuv kengashi, ijroiya organi a'zolari, Jamiyat xodimlari va jalb etilgan ekspertlar (tegishli soha mutaxassislari, soha oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari va boshqalar)dan iborat tegishli masalalar, shu jumladan, nizoli vaziyatlarni aniqlash va hal etish, audit, kadrlar bo'yicha va boshqa qo'mitalar (ishchi guruhlari) tashkil etish;

49. Kuzatuv kengashi a'zosi quyidagilarga majbur:

- *Jamiyat bilan bitim tuzishda affillangan ekanligi to'g'risida tuzilishi kutilayotgan bitim haqidagi ma'lumotlarni, shu jumladan bitimda ishtirok etayotgan shaxslar, bitim predmeti to'g'risidagi ma'lumotlarni, tegishli shartnomaning muhim shartlarini batafsil ko'rsatgan holda yozma bildirish yuborish orqali Jamiyatni xabardor etishi;*

- *o'zining lavozim majburiyatlarini halol, shuningdek Jamiyat manfaatlari yo'lida u eng yaxshi deb hisoblaydigan usul bilan amalga oshirish;*

- *Qonunchilikda va Jamiyat ustavida ko'zda tutilgan boshqamajburiyatlarni.*

50. Kuzatuv kengashi a'zolari Jamiyat aksiyadori, ijroiya va nazorat organi a'zolari o'rtasida o'zaro ishonch, hurmat, hisobdorlik va nazorat tamoyillari asosidagi hamkorlikni ta'minlaydi.

51. Kuzatuv kengashi a'zolari Jamiyat imkoniyatlaridan (mulkiy va nomulkiy huquqlar, xo'jalik faoliyati sohasidagi imkoniyatlar, Jamiyatning faoliyati va rejaları to'g'risidagi axborotlar) shaxsiy bo'yluk orttirish maqsadida foydalanish huquqiga ega emas.

Kuzatuv kengashi raisiga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 5 baravari, a'zolariga 4 baravari miqdorida har oyda haq to'lab boriladi.

52. Kuzatuv kengashi a'zoriga nomzodlar zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:

- **jonkuyarlikni namoyon qilish majburiyati** — kuzatuv kengashi a'zosi sifatida vijdonan va jonkuyarlik asosida harakat qilish;

- **sodiqlikni namoyon qilish va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik majburiyati** — kuzatuv kengashi a'zosi sifatida birinchi navbatda korxonaga manfaatlaridan kelib chiqib harakat qilish;

- **lozim darajada ko'zdan kechirishlikni namoyon qilish majburiyati** — kuzatuv kengashi a'zolaridan korxonaga nisbatan qaror qabul qilishda ehtiyotkorlik bilan yondashish;

- **mustaqil mulohazadan foydalanish majburiyati** — kuzatuv kengashi a'zosidan qarorlarni mustaqil, shaxsiy va boshqa manfaatlarni inobatga olmagan holda qabul qilish.

53. Jamiyat kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi kuzatuv kengashining boshqa a'zolari bilan bir qatorda Qonunda va ushbu Nizomda belgilangan teng huquqlar va majburiyatlarga ega bo'ladi.

8. KUZATUV KENGASHI A'ZOLARINING JAVOBGARLIGI

54. Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va

o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyatning manfaatlarini ko'zlab ish tutishi hamda qonun xujjatlarida va Jamiyat ustavida belgilangan tartibda javobgar bo'lishi lozim.

55. Agar bir nechta shaxs javobgar bo'lsa, ularning Jamiyat oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo'ladi.

56. Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari javobgar bo'lmaydi.

57. Jamiyat yagona aksiyadori Jamiyatga yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'vo bilan kuzatuv kengashining a'zosi ustidan sudga murojaat qilishga haqli.

9. YAKUNIY QOIDALAR

58. Jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi Kuzatuv kengashi a'zolarini zarur materiallar bilan ta'minlash, shuningdek, aksiyador va investorlar bilan o'zaro hamkorlik uchun mas'ul hisoblanadi.

59. Ushbu Nizom talablarini buzgan aybdor shaxslar o'rnatilgan tartibda javobgarlikka tortiladi.

60. Agar mazkur Nizomning ma'lum bir qoidalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va/yoki Jamiyatning ustaviga zid kelsa, ushbu qoidalar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu qoidalar bilan tartibga solinadigan masalalar bo'yicha mazkur Nizomga tegishli o'zgartirishlar kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va/yoki Jamiyat ustaviga amal qilinadi.